



BOSHLANG'ICH SINF SAVOD O'RGATISH DARSLARIDA O'QUVCHILARNI YOZUVGA O'RGATISH METODIKALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1137000>

Asadova Shahlo Saidjon qizi

Guliston davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'naliishi 52-21 guruh talabasi

ANNATOTSIYA

Hech kimga sir emaski, maktab ta'limining eng muhim va asosiy bosqichlaridan biri bu boshlang'ich ta'limdir. Aynan o'sha davrda o'quvchilar har tomonlama savod chiqarishadi, ya'ni o'qish, yozish va hisoblash ko'nikmalarini o'zlarida shakllantirishadi. Shu sababli ham ushbu bosqich muhim hisoblanadi.

Bizning mazkur maqolamiz ham aynan shu mavzuga bag'ishlangan bo'lib, o'quvchilarni yozuvga o'rgatuvchi ayrim metodlardan namunalar keltirilgan.

ABSTARCT

It is no secret that one of the most important and basic stages of school education is primary education. It is during that period that students develop all-round literacy, that is, they develop reading, writing and counting skills. That is why this stage is important. This article is dedicated to this topic, and examples of some methods of teaching students to write are given.

АННАТОЦИЯ

Ни для кого не секрет, что одним из самых важных и базовых этапов школьного образования является начальное образование. Именно в этот период у учащихся развивается всесторонняя грамотность, то есть развиваются навыки чтения, письма и счета. Именно поэтому этот этап важен.

Этой теме посвящена данная статья и приведены примеры некоторых методов обучения учащихся письму.

Kalit so'zlar

husnixat, boshlang'ich ta'lim, diktant, savod chiqarish, o'qituvchi, yozish.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, boshlang'ich ta'limda o'quvchilar xat-savod chiqarishadi, shu boisdan ham ushbu davrda ham o'qituvchi-pedagoglarga, ham ota-onalarga kuchli mas'uliyat yuklanadi. Agar o'quvchi o'sha davrda qarovsiz qolib ketsa, umuman savodsiz bo'lib qolish ehtimoli kuchli. Hozirgi kunda ayrim yosh ota-onalar shu sababdan ham farzandlarining bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun qo'shimcha to'garaklarga berishadi. Maktab ta'limida ham o'qituvchilar o'quvchilarga ma'lumotlarni oson yetkazishlari uchun



turli o'yinlardan, metod va texnologiyalardan unumli foydalanishadi. Biz ham mazkur maqolamiz orqali o'quvchilarning yozish bo'yicha savodini chiqarishda amal qilish kerak bo'lgan tavsiya va maslahatlar, bundan tashqari dars davomida qo'llash mumkin bo'lgan metod va texnologiyalarga namunalar keltiramiz.

Hech kimga sir emaski, kichkina bolajonlarimizni yozuvga o'rgatish biroz murakkab jarayon, ushbu faoliyatda samarali natijaga erishish uchun esa qunt, sabr va tashabbuskorlik talab qilinadi. O'quvchilarni yozuvga o'rgatish chog'ida ham turli texnikalardan, nusxa ko'chirish mashqlaridan foydalanish samaraliroq. Maktab davrida, ayniqsa boshlang'ich sinflarda o'quvchi nafaqat to'g'ri ya'ni xatosiz yozishga, balki chiroyli yozishga ham o'rgatiladi. Chiroyli yozish bu - husnixat. Husnixat bilan yozish ko'pchilik uchun murakkabdek tuyilishi mumkin, lekin aslida unday emas. Ayrim psixologlarning fikricha, insонning yozuviga qarab uning xarakter xususiyatlarini ochib berish mumkin. Shu boisdan ham husnixatga alohida e'tibor berish, o'quvchilarning chiroyli husnixatga ega bo'lishliklari uchun o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning salohiyatiga ko'ra turli metod va texnologiyalarni qo'llash zarur.

O'quvchilarga chiroyli yozishni o'rgatish uchun dastavval ular uchun tashqi tomondan qulay shart-sharoitlarni yaratib berish zarur. Misol uchun o'quvchi uchun qulay bo'lgan, uning bo'yiga mos keluvchi stol va stulni tanlashdan biz ishimizning dastlabki bosqichini amalga oshiramiz. Bundan tashqari xonaning yorug'ligiga ham e'tibor qaratishimiz zarur. Yana qo'shimcha tarzida shuni aytishimiz mumkinki, o'quvchi chiroyli husnixatga ega bo'lishlari uchun ruchkani barmoqlari orasida to'g'ri qo'yishni, ya'ni to'g'ri foydalanishni o'rganishlari zarur. Bularning barchasi husnixat qilib yozishdagi gigiyenik talablar sirasiga kirib ketadi.

O'quvchilar yozishni o'rganish chog'ida dastavval harfni yoki so'zni havoda yozishni mashq qiladi, ya'ni ularni qo'l harakatlari bunga o'rganadi va daftarga yozish chog'ida unchalik qiynalishmaydi. Bundan tashqari yozilgan harflar yoki so'zlarning ustidan yurgizib yozish ham o'quvchilarga katta yordam beradi. Bir tarafdan bu o'yinga monand texnologiyalar o'quvchilarga qiziqarli tuyilsa, bir tarafdan ularda o'rganish va uqib olish kabi jarayonlarni ham tezlashtiradi.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilar quyidagilarni o'zlashtirishadi:


- a. Talaffuzi va yozilishida farq qilmaydigan so'zlarda tovush bilan harfnинг mosligini;
- b. So'zlarni alohida yozishni, ya'ni yozuv vositasida so'zni ma'no birligi sifatida ajratishni;
- c. So'zning satrga sig'may qolgan qismini keyingi qatorga bo'g'inlab ko'chirib yozishni;
- d. Gap boshida, shuningdek, kishilar ismida, hayvonlarga qo'yilgan nomlarda bosh harfning ishlatalishini amaliy tarzda o'rganadilar





O'quvchilar yozish ko'nikmalarini bir qancha usullar va texnikalar orqali o'zlarida shakllantirishlari mumkin. Bularga quyidagilarni namuna sifatida keltiramiz:

1. Chiziqli usul;
2. Namunaga qarab yozuv usuli;
3. Namunaga qarab ko'chirib yozuv usuli;
4. Nusxa ko'chirish usuli;
5. Genetik usul;
6. Tasavvur orqali yozish usuli;
7. Ritmik (sanoq-ohang) usuli;
8. Harf va uning elementlarini tahlil qilish usuli;
9. Yozuv malakasini ongli o'zlashtirish usuli;
10. Qo'l harakatini mashq qildirish usuli.

1.Chiziqli usul.




Ushbu usulda o'quvchi har bir harfni qanday belgilarga ega ekanligi, ularni qay darajada qiya yozish kerakligini, uning kattaligini va boshqa xususiyatlarini o'rGANADI. Chiziqli metod XIX asrning boshlaridan boshlab qo'llangan, ya'ni ta'lim sohasiga kirib kelgan. Bu metod uchun tayyor holatdagi chiziqli yozuv daftarlari ishlab chiqilgan. Bizga bugungi kunda ham tanish bo'lgan ushbu daftarlari harflarni chiroyli, bir tekisda, ma'lum qiyalikda yozish imkoniyatini yoritib bergen. Bu daftarlardagi chiziqlar o'ziga xos ko'rinishlarga ega. Katta yoshdagi o'quvchilar uchun alohida, kichik yoshdagi o'quvchilar uchun alohida turlari mavjud. Kichik yoshdagi o'quvchilarga mo'jallangan daftarlari qiya va yotiqlichiziqlar bilan shakllanganini ko'rishimiz mumkin



Chiziqli usul orqali o'quvchilar qo'llarini yozuvda harflarni yozishda kerak bo'ladi. Har bir elementlarni daftarga yozish orqali o'rganadilar. Harflarni yozishga o'rgatishdan oldin, bu kabi elementlarni yozdirishdan maqsad o'quvchilarni yengil va aniq yozishga o'rgatishdir.

2. Namunaga qarab yozuv usuli.

Ushbu usulning o'ziga xosligi shundaki, bunda asosiy urg'u o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. Ya'ni bu usulda har bir harf namunasi o'quvchilarga tushunarli tarzda doskaga yozib berilishi zarur.



Dastlab har o'rganish chog'ida har bir harfning elementlari yozib ko'rsatiladi, keyin esa yaxlit harf o'quvchilarning ixtiyoriga havola qilinadi. O'qituvchi harflar va belgilarning yozilishiga diqqat qilishi va ular hamma o'quvchilarga ko'rinishi zarur. O'qituvchi yozish chog'ida harflar va belgilarning yozilishini og'zaki tarzda ham aytib, yozishi zarur. Chunki bu yoshdagi o'quvchilarning diqqati ancha tarqoq bo'ladi, bu usul orqali esa o'qituvchi barcha o'quvchining asosiy e'tiborini doskaga qarata oladi. Shundan keyin o'quvchilar doskaga yozilganlarni daftarlariga ko'chirishlari kerak bo'ladi, ushbu jarayonni ham o'qituvchi bevosita nazorat qilib



boradi. Ushbu usuldan nafaqat harflar, balki bo'g'inlar va so'zlarni yozish chog'ida ham foydalanish mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, savod o'rgatish davridayoq ko'chirib yozish, diktant va ijodiy yozuvlardan foydalanish mumkin. O'quvchilar bu orqali o'z-o'zini tekshirishni o'rghanadilar. O'qituvchilar bitta narsaga ahamiyat berishlari zarur, yozuv darslarida faqatgina yozishga o'rgatish asosiy unsur bo'lib qolmasligi kerak, o'quvchilar yozish orqali nutq o'stirtish, fikrlash singari ko'nikmalarini ham o'zlarida shakllantirishlari zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Qosimova K., Matchonov S., G`ulomova X., Yo`ldosheva Sh., Sariev Sh., Ona tili o`qitish metodikasi, T., 2009.
- R.K.Turdiyeva Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy ko'nikmalarini shakllantirish.Darslik.Guliston-2023
- R.Safarova va boshqalar, Alifbe, -T., 2010.
- R.Safarova va boshqalar, Savod o'rgatish.-T., 2004.
- WWW.ZIYONET. UZ (internet tarmog'i)